

O‘ZBEK NASRIDA BOSH QAHRAMON PSIXOLOGIYASI

Ro‘ziyeva Yulduz Qahramon qizi

Qarshi davlat universiteti 4-bosqich talabasi

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada hozirgi davr hikoyachiligida bosh qahramon ruhiyatini tasvirlash masalasi ilgari surilgan. Bundan tashqari inson psixologik dunyosini tasvirlashdagi ijodkor mahorati Zulfiya Qurolboy qizining “Latofat xonim” hikoyasi misolida berilgan.*

***Kalit so‘zlari:** hikoya, bosh qahramon psixologiyasi, psixologik konflikt, ichki portret, xarakter, monolog, kulminatsiya, detal, obraz, shaxs ruhiyati.*

“Badiiy asar insoniyat tarixining qaysi qatlamini tasvirlamasin, uni, birinchi galda, inson sifatidagi o‘y-fikrlari bilan yoritishi lozim”. [1.3-bet] Albatta, bu “lozimlik”ni, ta’bir joiz bo‘lsa, badiiy asar yaratishda yozuvchi oldiga qo‘yiladigan muhim talabni amalga oshirishda epik turning “katta” janrlaridan tashqari kichik epik janr hisoblanmish hikoyadan ham foydalansa bo‘ladi. Negaki dono xalqimiz qon-qoniga singib ketgan “kichkina demang bizni, ko‘tarib uramiz sizni” tarzidagi fikrlarda ham jon bordek, hikoyaning hajm masalasida boshqa janrlar oldida uyaliq qolgulik xususiyati bo‘lsa-da, u butun boshli davr ruhini bir bet, hattoki yarim betda han ifodalashga qodir. Zero, Roberto Arlt aytganidek, roman ochkolar bilan yutsa, hikoya nokautlar bilan g‘olib keladi.

Hikoya janri haqida qisqacha fikr bildiradigan bo‘lsak, u inson hayotidagi u yoxud bu yorqin hodisani, ijtimoiy yoxud psixologik konfliktni xarakter bilan uzviy bog‘liq holda rivoyaviy usulda tasvirlovchi kichik epik asardir. [2.470-bet] Ana shu yorqin hodisa yoxud ijtimoiy konflikt bosh qahramon hayotida yuz beradi va uning ruhiyatiga o‘z ta’sirini o‘tkazmasdan qolmaydi.

Hozirgi o‘zbek nasrining faol ijodkorlaridan biri Zulfiya Qurolboy qizining “Latofat xonim” hikoyasidagi bosh qahramon psixologiyasi o‘quvchini bee’tibor qoldirmaydi. Unda yozuvchi Latofat xonimning ichki portretini chizish orqali uni o‘quvchiga tanishtiradi. Asar boshida ayolning rakka chalinganligi xususidagi tashxis xatoligi uchun Maskovdan uyga qaytganligi aytib o‘tiladi. Ammo bu ma’lumotning ishonchliligi masalasi tugun sifatida beriladi:

Bosh qahramonning turmush o‘rtog‘i – Shukurov haqidagi qarashlari uning xarakter darajasiga ko‘tarilishiga sababchi bo‘ladi. Bilamizki, “adabiyotshunoslik ilmida xarakter ma’lum ijtimoiy faoliyat tipi sifatida tasvirlanadi. Xarakter, L.I.Timofeyev aytganidek, obrazning yadrosi. Xarakter, birinchi navbatda, konkret hayotiy sharoitda o‘z individual xatti-harakatlari va ruhiy kechinmalari bilan namoyon bo‘ladigan insonning aniq tasviri. Umuman aytganda, qahramonning muhim xususiyatlarini aniqlaydigan asosiy belgilar majmui xarakter deb yuritiladi (G.A.Abramovich)”.

Quyidagi iqtibosda Latofat xonimga xos bo‘lgan xarakter xususiyatlariga guvoh bo‘lamiz:

“O‘rtoq Shukurov (Latofat xonim erini shunday atashni xush ko‘rardi) jamiyatda o‘z o‘rnini topgan erkaklardan edi. U ancha izzattalab, o‘ziga bino qo‘ygan shaxs edi. Odamovi, mehmondorchilikni, qarindosh-urug‘lar bilan bordi-keldi qilishni yoqtirmas, birortasinikiga to‘y-ma‘rakalarga ham yaxshigina sovg‘a-salomlar bilan mashinada Latofat xonimning yolg‘iz o‘zini yuborardi. Erining qarindoshlar uchun qusur hisoblangan bu odatini u kamsuqumlikka yo‘yardi”. [3.351-bet]

Latofat xonimning Shukurovga bo‘lgan muhabbati kuchliligi hattoki muallif tomonidan tan olingan “o‘lik” ko‘zlarini sevishi bilan yanada yorqin tasvirlanadi. Ammo bu muhabbat tufayli tug‘ilgan ishonch hissi hikoya voqealarining keyingi o‘rinlarida asta-sekin so‘nib borganini ko‘rishimiz mumkin. Dastlab ayol saraton tashxisi to‘g‘riligini bexosdan eshitib qolganida, keyinchalik bu dardga da‘vo bo‘lishi mumkin bo‘lgan ilonni eri olib kelishni unutkanida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Ikkinchi holatda ayolning ruhiy dunyosida evrilish vujudga keladiki, bu hol yozuvchi

tomonidan quyidagicha izohlanadi: “Ayol g‘alati bo‘lib ketdi. Shu paytgacha u mening kasalim erimning dard-u dunyosini qorong‘u qilib yuborgan, degan xayol bilan yurardi. Nahotki, u shunchalik loqayd bo‘lsa?” [3.355-bet]

Hikoyada Latofat xonimning ruhiy olami ko‘pincha uning monologlari orqali ifodalanadi. Bular da hayotga tashna ayolning qalb tug‘yonlari bilan birga, turmush o‘rtog‘iga o‘zidan-da ko‘proq ishonadigan va bu ishonchi uning oldida qarzdorlik hissini uyg‘otadigan rafiq obraziga xos xususiyatlar ifodasini topgan:

“– ...Shukurov yaxshi odam, bolalarimni xor qilmaydi. Mendan keyin uylanishiniyam xudo biladi. Shuncha obro‘-e‘tibori bo‘la turib, shu paytgacha birorta begona xotinga yomon ko‘z bilan qaraganini sezmadim. O‘ynash tutishning ham o‘ziga yarasha muammolari borligini juda yaxshi tushunadi. Yangi xotin masalasi... O‘gay ona, o‘gay bolalar... Ularni kelishtiraman deb... Shukurov xotirjamlikni sevadigan odam. U hech qachon bu ishga qo‘l urmaydi! Hech qachon!” [3.357-bet]

Asarning kulminatsiyasida Shukurovning “asl basharasi” ochib berilishiga xizmat qiluvchi bir voqea sodir bo‘ladiki, buning natijasida Latofat xonim tonggacha yig‘laydi. Turmush o‘rtog‘i hayotida ilk bora unga yalinib-yolvormasin, eshikni ochmaydi. Xo‘sh, Latofat xonim bunga haqlimidi? Axir Shukurovday odam undan uzr so‘rasa-yu, u kechirmasa... Lekin shu o‘rinda bir haqiqatni tan olish kerakki, u ham bo‘lsa, Latofat xonimning ayol ekanligidir. Zero, har qaysi ayolga, eng avvalo, mehr, boshqalardan emas, o‘z yostiqdoshidan hadya etilajak, mehr kerak.

“Latofat xonim” hikoyasida saraton kasalligi, ilon, o‘sma kabilar bosh qahramon ruhiyatini ochib berishga xizmat qiluvchi detal vazifasini bajargan. Masalan, kasallik tashxisining qo‘yilishiyoq va shuningdek, saratonga davo deb topilgan ilonning tezda olib kelinmasligi erning zavjasiga munosabatlarining oshkora bo‘y ko‘rsatishiga xizmat qilgan bo‘lsa, o‘sma vositasida boshiga ko‘targan insoni oldida zarrachalik qadri bo‘lmagan ayolning yashash uchun kurashi tasvirlangan.

“Badiiy asardagi detal – oddiy hayotdagi detal emas, balki o‘zida tipiklik va individuallik xususiyatlarini yig‘gan, ya’ni badiiy detaldir. Biror kishi obrazini yaratish uchun yozuvchi o‘sha kishining o‘ziga, shu bilan birga, shu kishi vakili bo‘lgan

muhitga xos detallarni tanlab va yig'ib olishi kerak. Shunday yo'l bilan tasvir etilgan kishining har bir ishi va so'zi o'quvchi uchun ishonarli bo'ladi". [4.193-bet]

Xulosa qilib aytganda, Zulfiya Qurolboy qizining aksariyat hikoyalarda qishloq va shaharlarda istiqomat qiluvchi oddiy o'zbek ayoli bosh qahramon sifatida tasvirlanadi. Yana bunday hikoyalarda ko'zga tashlanib turuvchi bir jihat shuki, yozuvchi qalamga olgan voqealar o'zga sayyoralarda yoxud noma'lum diyorlarda emas, siz-u bizning kundalik hayotimizda sodir bo'lib turadi. Ijodkor esa ana shunday arziyas tuyulgan kichik hodisotlarga ham "muhimlik" tamg'asini bosadi. Zero, bunday vaziyatlarda bosh qahramon niqobi ostidagi "inson" tutadigan yo'l, qiladigan xatti-harakat, tortadigan dard-u iztiroblar, umumiy qilib aytganda, shaxs ruhiyati birlamchi omil sifatida qaraladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Belinskiy V. Adabiy orzular.-T.: Adabiyot va san'at, 2000-yil.
2. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari.-T.: O'zbekiston, 2002.
3. Zulfiya Qurolboy qizi. Qadimiy qo'shiq.-T.: O'zbekiston, 2012.
4. Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi.-T.: O'qituvchi, 1980.